“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Ijtimoiy adolat prinsipining huquqiy imtiyozlarni taqdim etishdagi ahamiyati

Mashxuraxon Shokirova-Inomjonova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi sho‘basi o‘qituvchisi
e-mail: mashhurainomjonova2002@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada ijtimoiy adolat prinsipining huquqiy imtiyozlarni belgilangan tartibda joriy etish, qo‘llash va bekor qilish bilan bog’liq masalalar huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Formal tenglik nuqtai nazardan barcha uchun bir xil munosabat ko‘zda tutilsa-da, ayrim hollarda iqtisodiy, ijtimoiy va shaxslar irodasiga bog‘liq bo‘lgan to‘siqlar natijasida ayrim toifadagi shaxslar uchun tengsizlik holati yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ham huquqiy imtiyozlar tenglikni ta’minlaydigan differensiya sifatida maydonga chiqadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, BMTning inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlari va rivojlangan mamlakatlarning sud amaliyoti qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Natijada esa imtiyozlarning ijtimoiy adolat prinsipiga mosligini tekshirish uchun legitim maqsad, qonuniy asoslar, mutanosiblik, shaffoflik va inklyuzivlikdan iborat mezonlar taklif qilish orqali samarali huquqiy mexanizm sifatida shakllantirishga erishish mumkin.

Калит сўзлар. legitimlik, mutanosiblik, huquqiy imtiyoz, ijtimoiy adolat, differensiatsiya, ijtimoiy davlat, tenglik.

Аннотация. В данной статье с правовой точки зрения анализируются вопросы, связанные с внедрением, применением и отменой правовых льгот в установленном порядке принципа социальной справедливости. Хотя с точки зрения формального равенства предполагается одинаковое отношение ко всем, в некоторых случаях в результате экономических, социальных и волевых барьеров может возникнуть неравенство в отношении определенных категорий лиц. По этой причине правовые привилегии выступают в качестве дифференциации, обеспечивающей равенство. В статье проводится сравнительно-правовой анализ законодательства Республики Узбекистан, международных документов ООН по правам человека и судебной практики развитых стран. В результате можно добиться формирования в качестве эффективного правового механизма путем предложения критериев, состоящих из легитимной цели, правовых основ, пропорциональности, прозрачности и инклюзивности для проверки соответствия льгот принципу социальной справедливости.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. легитимность, соразмерность, правовая привилегия, социальная справедливость, дифференциация, социальное государство, равенство.

Annotation. This article provides a legal analysis of issues related to the introduction, application, and cancellation of legal privileges in accordance with the established procedure of the principle of social justice. Although formal equality presupposes equal treatment for all, in some cases, a state of inequality may arise for certain categories of individuals as a result of economic, social, and volitional barriers. For this reason, legal privileges appear as a differentiation that ensures equality. The article provides a comparative legal analysis of the legislation of the Republic of Uzbekistan, international UN human rights documents, and the judicial practice of developed countries. As a result, an effective legal mechanism can be achieved by proposing criteria consisting of a legitimate goal, legal grounds, proportionality, transparency, and inclusivity to verify the compliance of benefits with the principle of social justice.

Keywords. legitimacy, proportionality, legal privilege, social justice, differentiation, social state, equality.

Ma’lumki, qonunchilikda belgilab qo‘yilgan huquqiy imtiyozlar odatda ayrim shaxslar yoki shaxslar guruhlari uchun mavjud umumiy qoidadan yengilroq va qulayroq tartib, yengillik, ustuvorlik, qo‘shimcha huquqlar va bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlardan qaysidir ma’noda ozod etilishni anglatadi. Tashqi tomondan olib qaraganda, bu teng munosabat qilishning aksiga o‘xshab ko‘rinadi. Biroq, tenglik prinsipining mazmuni faqat bir xillik bilan tavsiflanmaydi. Sababi, yashash sharoiti bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki xil shaxslarga aynan bir xil qoidaning tatbiq etilishi amalda tengsizlikka sabab bo‘lib qolishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, imtiyozlar qaysi tengsizlikni aynan qaysi vosita bilan va qay darajada asosli va samarali ravishda kamaytiryapti degan savol berish o‘rinli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida imtiyozlarning faqat qonunga muvofiq belgilanishi va ularning ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo‘lishi shartligi belgilab qo‘yilgan [1]. Imtiyozlarning ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo‘lishi shartligi qonunan mustahkamlab qo‘yilishining o‘zi yetarli hisoblanmaydi, balki, taqdim etilayotgan imtiyozlar mazmun jihatdan ham adolatli bo‘lishi kerak. Mazkur maqolaning maqsadi aynan shu masalani nazariy, milliy va xalqaro mezonlar natijasida tahlil qilishdan iborat.

J. Rawls o‘zining “Adolat nazariyasi” asarida barcha erkinliklar bilan bir qatorda ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar aholining eng kam ta’minlangan guruhlari foydasiga ishlashi lozimligini ilgari suradi. U yaratgan farq prinsipi ustunliklarni emas, balki zaif qatlamning hayot tarzi yaxshilanishini birlamchi maqsad sifatida qarashga undaydi [2]. A. Sen esa amaldagi ne’matlarning teng ravishda taqsimlanishi shaxslarga real imkoniyatlarining tengligiga erishish imkonini bermasligini ta’kidlab, nogironlik, sog‘liqning holati, hududiy va jismoniy cheklovlar mazkur bir xil imkoniyatlar va resurslardan teng ravishda foydalanishni inkor etadi [3].

Marta Finemanning “zaif subyekt” konsepsiyasiga ko‘ra, zaiflik bu faqatgina alohida toifalarga xos bo‘lgan holat hisoblanmaydi, balki bu insoniyat hayotining o‘zgaruvchanlik belgilaridan biri hisoblanadi. Davlat organlari esa mazkur shaxslarning zaiflikka javob bera olish imkoniyatini va ularning qay darajada barqarorligini turlicha shakllantiradi [4]. Bu yondashuv orqali esa taqdim etilayotgan imtiyozlar ehson sifatida emas, aksincha ijtimoiy institutlar tomonidan shakllantirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish yo‘li sifatida qarash o‘rinli bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy adolat prinsipi imtiyozlarning uchta asosiy funksiyasini birlashtiradi. Birinchi funksiya – kompensator – bu avvalgi yoki mavjud noqulaylikni kamaytirish. Ikkinchi funksiya – imkon yaratuvchi – mavjud huquqlardan real ravishda foydalanish imkoniyatini yaratish. Uchinchi funksiya esa transformative hisoblanib, u tengsizlikka sabab bo‘layotgan institutsional to‘siqlarni o‘zgartirishdan iborat. Demak, imtiyozlar yuqoridagi funksiyalarning hech biriga javob bermasa u muayyan guruh manfaatlarini asossiz ravishda himoyalash vositasiga aylanib qolishi mumkin.

Formal tenglik o‘xshash vaziyatdagi shaxslarga bir xil munosabatni talab qilsa, moddiy tenglik esa shaxslarning boshlang‘ich sharoiti, mavjud to‘siqlar va normaning amaliy oqibatlarini hisobga oladi. Shu nuqtai nazardan huquqiy differensiatsiya uch xil natija berishi mumkin: birinchidan, obyektiv farqqa tayangan odatiy tartibga solish; ikkinchidan, faktik tengsizlikni kamaytiruvchi ijobiy chora; uchinchidan, legitim maqsad yoki mutanosib asosga ega bo‘lmagan diskriminatsion ustunlik. Huquqiy baholashda choraga berilgan nom emas, uning maqsadi, konstruktsiyasi va ta’siri hal qiluvchi bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 4-moddasida ham ishchanlik sifati va mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan belgilar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklovlar o‘rnatish yoki imtiyozlar taqdim etishni kamsitish deb baholamaslik lozimligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun qonunchilikda belgilab qo‘yilgan qo‘shimcha kafolatlar kamsitish bilan tenglashtirilmasligi, sababi esa ushbu imtiyozlarning maqsadi mavjud noqulayliklarni oldini olish ekanligini ta’kidlash darkor [5].

Xalqaro huquqiy hujjatlarga nazar tashlar ekanmiz, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 26-moddasida ham qonun oldida tenglik va teng huquqiy himoya vositalaridan foydalanish kafolati belgilab qo‘yilgan [6].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham O‘zbekistonning ijtimoiy davlat ekanligi mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu sifat orqali esa davlat tenglikni faqat aniq va betaraflik vositasida emas, balki mavjud huquqlardan haqiqatda foydalana olish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish orqali ta’minlash orqali kuchaytirish sifatida baholash darkor.

Konstitutsiyaning 57-moddasi mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda boshqa toifadagi ijtimoiy ehtiyojmand toifalarning huquqlari davlat himoyasida ekanini belgilangan. Unda davlatning hayot sifatini yaxshilash, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratish, obyekt va xizmatlardan foydalanish, ishga joylashish, ta’lim va axborot olish imkoniyatlarini ta’minlash majburiyatlari ko‘rsatilgan. Bu norma orqali imtiyozning legitim maqsadini moddiy ko‘makdan nisbatan kengroq ya’ni mustaqillik, ishtirok imkonini ta’minlash

sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Gender tengligi sohasidagi qonunchilikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, moddiy tenglik mexanizmini yanada aniq ifodalaydi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda vaqtinchalik maxsus choralar haqiqiy tenglikka erishish va tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy hamda institutsional choralar sifatida ta’riflanadi. Qonun bunday choralarni jins bo‘yicha kamsitish deb hisoblanmasligi va davlat xizmatida kvota qo‘llashga, mutanosib vakillikka erishilgach esa uni bekor qilishga imkon beradi [7]. Natijada esa maqsadlilik va muddatlilik ijtimoiy adolat prinsipining normativ elementiga aylanadi.

Milliy modelning kuchli jihati shundan iboratki, ijtimoiy adolat bevosita konstitutsiyadagi mezon sifatida mustahkamlab qo‘yilganligidir. Biroq mazkur prinsipni amalda qo‘llash uchun imtiyoz joriy etuvchi har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasida muammo diagnostikasi, taqdim etish asoslari, kutilayotgan natija, davlat budjetiga ta’siri, uchinchi shaxslar huquqlariga aralashuv va qayta ko‘rib chiqish muddati ko‘rsatilishi lozim. Aks holda qonuniy shakl mazmuniy adolatsizlikni yashirishi ehtimoldan holi emas.

Huquqni qo‘llash faoliyatida ham protsessual kafolatlar zarur. Imtiyoz berish yoki rad etish to‘g‘risidagi qaror tushunarli tarzda asoslantirilishi, talab qilinadigan hujjatlar oldindan aniq e’lon qilinishi, raqamli tizimlar orqali alohida ehtiyojlarni inobatga olish, manfaatdor shaxs esa ma’muriy va sud tartibida shikoyat qila olish imkoniyatiga ega bo‘lishi darkor. Buning natijasida ijtimoiy adolat deklarativ qadriyatdan maxsus yuridik standartga aylanadi.

Yuqoridagi xalqaro tajriba va manbalar va milliy konstitutsiyaviy mezonlar asosida huquqiy imtiyozning ijtimoiy adolatga muvofiqligini baholash uchun quyidagi sakkiz mezonli test taklif etiladi:

Birinchi mezon – qonuniy asosga ega bo‘lish. Imtiyoz vakolatli subyekt tomonidan yetarlicha aniq qonuniy norma bilan belgilanganmi? Idoraviy amaliyot qonunda bo‘lmagan yangi ustunlik yaratmasligi kerak.

Ikkinchi mezon – legitim maqsad. Mazkur imtiyoz konstitutsiyaviy ahamiyatga ega noqulaylikni kamaytirish, huquqdan real foydalanish yoki himoyaga muhtojlikni bartaraf etishga qaratilganmi?

Uchinchi mezon – ehtiyojga bog‘liqlik. Ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa tekshiriladigan ijtimoiy dalillar bilan aniqlanganmi va mezon imtiyoz maqsadiga mos keladimi?

To‘rtinchi mezon – mutanosiblik. Kutilayotgan foydaning turi va hajmi maqsadga erishish uchun zarurmi?

Beshinchi mezon – sababiy bog‘liqlik. Imtiyoz aniqlangan to‘siqni amalda kamaytiradimi yoki faqat ramziy xususiyatga egami? Natija ko‘rsatkichlari oldindan belgilanishi kerak.

Oltinchi mezon – muddatlilik va monitoring. Vaqtinchalik chora uchun ko‘rib chiqish sanasi, doimiy kafolat uchun esa ehtiyoj va samaradorlikni davriy baholash mexanizmi mavjudmi?

Yettinchi mezon – shaffoflik va protsessual adolat. Qaror mezonlari ochiqmi, rad etish asoslantiriladimi va mustaqil shikoyat qilish imkoniyati mavjudmi?

Sakkizinchi mezon – inklyuzivlik. Inklyuziv yordamga muhtoj shaxslar asossiz chetda qolmayaptimi va manfaatdor guruhlarning ishtiroki hisobga olinganmi?

Mazkur taklif etilayotgan testning mezonlari o‘zaro bog‘liq hisoblanib, qonuniy asos legitim maqsadsiz, legitim maqsad esa mutanosib va samarali vositasiz imtiyozni oqlamaydi. Ayniqsa, “ijtimoiy ehtiyojmandlik” kabi ochiq tushunchalar ma’muriy ixtiyorni haddan tashqari kengaytirmasligi uchun dalillarga asoslangan indikatorlar, muntazam audit va sud nazorati bilan to‘ldirilishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy adolat prinsipi huquqiy imtiyozga ikki tomonlama vazifa yuklaydi. Bir tomondan, u individual noqulaylikni kamaytirib, formal tenglikni real tenglikka aylantiradi. Ikkinchi tomondan esa, u imtiyozni o‘zboshimcha ustunlikka aylanishidan cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, imtiyoz tenglik prinsipidan istisno emas, balki to‘g‘ri asoslantirilganda uning moddiy mazmunini ro‘yobga chiqaruvchi bir vositadir.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). https://lex.uz/acts/-6445145

2. Rawls, J. (1999). A theory of justice (Rev. ed.). Belknap Press. https://www.hup.harvard.edu/books/9780674000780

3. Sen, A. (2009). The idea of justice. Harvard University Press. https://www.hup.harvard.edu/books/9780674060470

4. Fineman, M. A. (2008). The vulnerable subject: Anchoring equality in the human condition. Yale Journal of Law & Feminism, 20(1), 1–23. https://openyls.law.yale.edu/bitstreams/f23fa6fb-d926-43dd-8627-d880c7337a8a/download

5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. https://lex.uz/uz/docs/-6257288

6. United Nations. (1966). International Covenant on Civil and Political Rights. https://legal.un.org/avl/ha/iccpr/iccpr.html

7. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. (O‘RQ–562). https://lex.uz/uz/docs/-4494849